

ABDULLA ORIPOV IJODIDA MILLIY AN'ANA VA POETIK MAHORAT

Hafizova Muxlisa Abdig'ani qizi,

O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsent v.b.

muxlisah@gmail.ru

Uzaqova Lola Abdurashitovna,

O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsent v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Oripovning "Chaqmoq", "Bahor ayyomi" va "Navro'z qutlovi" she'rlari badiiy-estetik hamda g'oyaviy jihatdan tahlil qilinadi. Tabiat hodisalari tasviri, bahor faslining poetik talqini hamda Navro'z bayramining milliy-ma'naviy mohiyati yoritiladi. Shuningdek, she'rlarda qo'llangan metafora, o'xshatish, antiteza va personifikatsiya kabi badiiy tasvir vositalarining funksional xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tahlil jarayonida tabiat obrazlarining lirik qahramon ruhiyati bilan bog'liqligi hamda milliy qadriyatlarning poetik ifodasi ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tabiat tasviri, poetik obraz, lirik qahramon, bahor motivi, Navro'z, metafora, antiteza, personifikatsiya, o'zbek she'riyati.

Аннотация. В данной статье анализируются стихотворения Абдуллы Орипова «Молния», «Бахор Айёми» и «Навруз Кутлови» с художественно-эстетической и идеологической точек зрения. Выделяются описание природных явлений, поэтическая интерпретация весны и национально-духовная сущность праздника Навруз. Также рассматриваются функциональные особенности таких художественных средств изображения, как метафора, сравнение, антитеза и олицетворение, используемых в стихотворениях. В процессе анализа на научной основе раскрывается связь образов природы с психикой лирического героя и поэтическим выражением национальных ценностей.

Ключевые слова: образ природы, поэтический образ, лирический герой, весенний мотив, Навруз, метафора, антитеза, олицетворение, узбекская поэзия.

Annotation. This article analyzes Abdulla Oripov's poems "Lightning", "Bahor Ayyomi" and "Navruz Kutlovi" from an artistic, aesthetic and ideological perspective. The description of natural phenomena, the poetic interpretation of the spring season and the national and spiritual essence of the Navruz holiday are highlighted. Also, the functional features of such artistic means of depiction as metaphor, simile, antithesis and personification used in the poems are considered. In the process of analysis, the connection of images of nature with the psyche of the lyrical hero and the poetic expression of national values are revealed on a scientific basis.

Keywords: image of nature, poetic image, lyrical hero, spring motif, Navruz, metaphor, antithesis, personification, Uzbek poetry.

Kirish. Badiiy adabiyotda tabiat tasviri inson tafakkuri va estetik qarashlarining muhim ifodalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa lirik she'riyatda tabiat manzaralari ko'pincha shoirning ichki kechinmalari, ruhiy holati va hayot haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli adabiyotshunoslikda tabiat obrazlari poetik tafakkurning muhim komponenti sifatida talqin qilinadi.[1.45]

Adabiyotda fasllar tasviri xarakterli tarzda ochib beriladi, ayniqsa bahor fasli uyg'onish, yoshlik kabi ramzlar bilan ifodalanadi. Har bir detallar ko'ngil torlarini chertib, uyg'otishga sabab bo'ladi.

O'zbek she'riyatida bahor fasli, momaqaldiroq, chaqmoq kabi tabiat hodisalari ko'pincha yangilanish, ruhiy uyg'onish va hayotiy kuch ramzi sifatida tasvirlangan. Bu an'ana xalq og'zaki ijodidan boshlab zamonaviy she'riyatgacha davom etib kelmoqda.

[2.112] Mazkur maqolada “Chaqmoq”, “Bahor ayyomi” hamda “Navro‘z qutlovi” she‘rlari poetik jihatdan tahlil qilinib, ularda tabiat tasviri, lirik kechinmalar hamda milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi o‘rganiladi. “Chaqmoq” she‘rini tahlilga tortamiz.

Tabiatning turfa maqomi bordir,
Bir yonda shu‘la-yu bir yonda zulmat.
Bir yonda oq bilan qora qatordir,
Bir yon qasirg‘ayu bir yon sukunat. [5.12]

“Chaqmoq” she‘ri tabiatdagi keskin va dramatik hodisalarni tasvirlash orqali hayotdagi qarama-qarshiliklar va falsafiy mushohadalarni ifodalashga qaratilgan. She‘r boshidayoq yorug‘lik va zulmat kabi qarama-qarshi obrazlar yonma-yon qo‘llanadi. Bunday usul poetik nutqda antitezaning qo‘llanishiga misol bo‘lib, u badiiy matnning g‘oyaviy ta‘sirini kuchaytiradi.

Adabiyotshunoslik nazariyasida antiteza qarama-qarshi tushunchalar orqali muayyan fikrni kuchaytirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Mazkur she‘rda ham oq va qora, yorug‘lik va zulmat kabi obrazlar orqali borliqning murakkabligi ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili. Shoir ijodi haqida M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, B.Nazarov, B.Akramov, N.Rahimjonov, O.Abdullaev, S.Meli, Y.Qosimov, N.Afoqova, M.Rahmonova, G.Ashurova, A.Hamdammov kabi adabiyotshunoslar, tilshunos R.Yusubova kabi ko‘plab olimlarning maqola, risola va tadqiqotlari yaratilgan. Jumladan, N.Afoqovanning nomzodlik dissertatsiyasida Shoir ijodidagi badiiy san‘atlar maxsus tadqiq etilgan bo‘lib, mavzumizga bevosita aloqador fikrlar bildirilgan. M.Rahmonova Shoir asarlarining hayotiylik va badiiy butunlik masalasini, G.Ashurova Shoir she‘riyatining obrazlar tizimi, g‘oya va badiiy tasvir qirralarini, A.Xamdammov esa Shoir she‘riyatidagi poetik tafakkur ko‘lamining xalqona, milliy qirrasini ilmiy asosda o‘rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning fan, madaniyat va ma‘naviyat masalalariga bag‘ishlangan asarlari tadqiqot uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” asari tadqiqot ishning nazariy asosini belgilab beradi. Shuningdek, O.Sharafiddinov, S.Ahmad, M.Qo‘shjonov, O.Madaev, N.Karimov, G.Vohidova, N.Vladimirova, M.Yunusov, U.Normatov, I.G‘afurov, A.Ulug‘ov, U.Hamdammov, B.Karim, A.A‘zam tadqiqotlarida ham Abdulla Oripov ijodiga muayyan munosabat bildiriladi.

Tahlillar va natijalar. She‘r davomida chaqmoq va momaqaldiraq tasvirlari metaforik ifodalar orqali beriladi. Masalan, chaqmoqning ajdarga o‘xshatilishi yoki momaqaldiraqning portlashga qiyoslanishi tabiat hodisasining kuchini obrazli tarzda tasvirlaydi. Bunday tasvirlar o‘quvchi tasavvurida jonli manzara hosil qiladi.

Bundan tashqari, she‘rda tabiat hodisasi shoirning ichki kechinmalari bilan bog‘liq holda tasvirlangan. Lirik qahramon chaqmoqni kuzatar ekan, borliqning sirli va murakkab tabiati haqida o‘y yuritadi. Bu holat tabiat tasvirining falsafiy mazmun kasb etishiga sabab bo‘ladi.

Natijada, “Chaqmoq” she’ri tabiat hodisasini tasvirlash bilan birga, inson tafakkuri va hayot falsafasi haqida mushohada yuritishga undovchi lirik asar sifatida namoyon bo‘ladi. “Bahor ayyomi” she’riga ham nazar tashlaydigan bo‘lsak:

G‘uncha lab yoradi bahor ayyomi,
Kapalaklar uchar sharbatga xummor.
Ochilmay tur g‘uncha bu rashk ayyomi,
Qaylarda yuribsan, kel sevikli yor. [5.9]

“Bahor ayyomi” she’rida bahor faslining kirib kelishi bilan tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlar nafis va lirizmga boy tarzda tasvirlangan. G‘unchalarning ochilishi, kapalaklarning uchishi kabi obrazlar bahorning hayotbaxsh kuchini ifodalaydi.

Adabiyotshunoslarning ta’kidlashicha, lirik she’riyatda tabiat tasviri ko‘pincha inson ruhiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. [3.93]

Mazkur she’rda ham bahor manzarasi lirik qahramonning muhabbat va sog‘inch tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan.

She’rda gul obrazining jonli mavjudot sifatida tasvirlanishi personifikatsiya usulining qo‘llanganini ko‘rsatadi. Personifikatsiya tabiat hodisalariga insoniy sifatlar berish orqali poetik tasvirni jonlantiradi.

Bundan tashqari, she’rda romantik ruh ustunlik qiladi. Bahorning kelishi lirik qahramon uchun faqat tabiat uyg‘onishi emas, balki muhabbat va sog‘inch tuyg‘ularining ham kuchayishini anglatadi. Shu tariqa bahor fasli she’rda go‘zallik va hayotiy quvonch ramzi sifatida talqin etiladi. “Navro‘z qutlovi” she’rida esa

Janubning otashi, porloq qo‘yoshi,
Olamga taralar ushbu mavvoda,
Aslida bu yurtidir bahorning boshi,
Navro‘z boshlanadi Qashqadaryodan.

Asl insonlarning Vatanidir bu,
Axli doim tanti, mehnatkash, halol,
Baxtiyor yoshlarning labida kulgu,

Onalaru uchun beshikdir hilol.
Dilida shukrona, boshda tug‘ilgandan,
Senga salom bo‘lsin shoir o‘g‘lingdan. [5.19]

Ushbu she’rda Navro‘z bayramining milliy va ma’naviy mohiyati tasvirlangan. Navro‘z qadimdan sharq xalqlarida tabiatning yangilanishi, hayotning qayta boshlanishi ramzi sifatida qaralib kelgan.

She’rda xalqning mehnatsevarligi, samimiyligi va birlik tuyg‘usi alohida ta’kidlanadi. Bunday tasvirlar xalq hayotining muhim jihatlarini poetik obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda milliy bayramlarning badiiy adabiyotda aks etishi xalqning madaniy xotirasi va tarixiy an'analarini ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan qaraganda, mazkur she'r Navro'z bayramining nafaqat fasliy hodisa, balki milliy qadriyat sifatida muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

She'r yakunida shoir xalqiga samimiy tilaklar bildiradi. Bu esa asarga tantanavor ruh bag'ishlaydi va Navro'zning ezgulik ramzi ekanini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Navro'z bayrami ham o'zbek madaniyati va adabiyotida muhim ramziy mazmunga ega. U nafaqat fasllar almashinuvi bilan bog'liq hodisa, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va ma'naviy dunyosini ifodalovchi an'ana hisoblanadi.[4.67]

Xulosa. Abdulla Oripov ijodidagi ushbu namunalar badiiy mazmuni va poetik xususiyatlari bilan o'zbek she'riyatidagi tabiat tasviri va milliy qadriyatlar uyg'unligini namoyon etadi. "Chaqmoq" she'rida tabiat hodisalari orqali falsafiy tafakkur ifodalangan bo'lsa, "Bahor ayyomi" she'rida bahorning go'zalligi va muhabbat tuyg'ulari tasvirlangan. "Navro'z qutlovi" esa milliy qadriyatlar va xalqona ruhni ulug'lovchi asar sifatida e'tiborni tortadi.

Mazkur she'rlarda metafora, o'xshatish, antiteza va personifikatsiya kabi badiiy tasvir vositalari samarali qo'llangan. Bu esa she'rlarning poetik ta'sirchanligini oshirib, ularda tabiat manzarasi, inson ruhiyati hamda milliy qadriyatlarning uyg'un holda ifodalanganini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu she'rlar o'zbek she'riyatida tabiat obrazlari va milliy ruhni aks ettiruvchi poetik an'analar davomiyligini ko'rsatuvchi muhim badiiy namunalar sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2004.
3. Umurov H. Badiiy asar nazariyasi. – Toshkent, 2001.
4. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1999.
5. Oripov A. Quyosh bekati. – Toshkent: Sharq, 2010.